

# O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2025- yil yanvar oyi)

## 1. Sanoat mahsuloti

2025- yilning yanvar oyida respublika korxonalarini tomonidan **55 750,6** mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **104,3** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi 79,1 foizni, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati 10,1 foizni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 10,2 foizni, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish 0,6 foizni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish o'sishining asosiy omili bo'lib ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,2 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati 2,3 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sanoatida 0,6 % ga oshganligi hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatida 2,4% ga pasayishi kuzatildi.

Shuningdek, o'tgan yilning shu davriga nisbatan oziq ovqat ishlab chiqarish (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 12,7 % ga oshgan), to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish (3,6 %) hamda boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish (38,3 % ga), rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish (60,6 %) hajmi oshdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan mashina va uskunalaridan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 81,0 %), asosiy farmatsevtika mahsulotlari va dori mahsulotlari (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 97,9 %) hajmi pasayishi kuzatildi.

## 2. Inflyatsiya darajasi

2025- yilning yanvarida respublika iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasini aks ettiruvchi iste'mol narxlari indeksi (INI) **100,7** % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha INI 100,8 % ni, nooziq-ovqat mahsulotlar bo'yicha 100,3 % ni, xizmatlar bo'yicha 101,1 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'zgarishlari hisobiga 2024- yilning dekabriga nisbatan yig'ma ko'rsatkich 0,37 foiz darajasida (keyingi o'rinlarda f.d.) yuqoriladi. Nooziq-ovqat mahsulotlar narxlarining oshishi yig'ma INIga 0,11 f.d., xizmatlar – 0,24 f.d. ta'sir etdi.

Bo'limlar kesimidagi INI diapazoni 100,1 % dan ("Axborot va aloqa") 103,5 % gacha ("Ta'lim sohasidagi xizmatlar") chegarasida bo'ldi.

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narx o'zgarishlari 2025- yil yanvaridagi qisqa muddatli yig'ma ko'rsatkich o'sish sur'atiga salmoqli

(+0,36 f.d.) ta'sir ko'rsatib, ularning hissasiga umumiy ta'sir darajasining 50 %i to'g'ri keldi.

“Ta’lim sohasidagi xizmatlar”, “Sog’liqni saqlash” va “Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar” bo’limlaridagi narx o’zgarishlari hisobiga oylik yig’ma ko’rsatkich qo’shimcha 0,22 f.d. (umumiy ta’sir darajasining 30,6 %) yuqoriladi.

Boshqa bo’limlardagi narx o’zgarishlarining ta’siri past darajada bo’ldi.

### **3. Qurilish ishlari**

2025- yilning yanvar oyida **11755,4** mlrd. so’mlik qurilish ishlari bajarilib, o’sish sur’ati **117,9** % ni tashkil etdi. Qurilish ishlarining umumiy hajmining 2675,4 mlrd. so’mi yoki 22,8 % yirik korxonalar va tashkilotlar, 5489,8 mlrd. so’mi yoki 46,7 % kichik korxonalar va mikrofirmalar, 3590,2 mlrd. so’mi yoki 30,5 % norasmiy sektor sub’ektlari tomonidan bajarildi.

### **4. Chakana savdo tovar aylanmasi**

2025- yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi **26 977,9** mlrd. so’mni tashkil etib, o’tgan yilning mos davriga nisbatan **9,2** % ga o’sdi.

Yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 1,4 % ga o’sdi, bu esa umumiy savdo hajmining 17,3 % ulushiga to’g’ri keladi. Kichik biznes sub’ektlarining chakana tovar aylanmasi 2024-yilning yanvar oyiga nisbatan 10,5 % ga o’sgan. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 71,9 % ni, shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 10,8 % ulush bilan 2 916,0 mlrd. so’mni tashkil etdi.

### **5. Tashqi savdo aylanmasi**

2025- yilning yanvar oyi yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **4 509,3** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan **297,2** mln. AQSh dollariga yoki **7,1** % ga ko’paydi. Eksport hajmi **1 309,8** mln. AQSh dollariga yetdi, o’tgan yilning shu davriga nisbatan **14,1** % ga ko’paydi. Import **3 199,5** mln. AQSh dollariga yetdi va o’tgan yilning shu davriga nisbatan **4,4** % ga o’sdi.

Eksport tarkibida quyidagi guruhlarda o’sish kuzatildi, jumladan: Kimyoviy moddalar va shunga o’xshash mahsulotlar 22,6 % (133,1 mln. AQSh doll.)ga, mineral yoqilg’i, moylash materiallari va shunga o’xshash materiallar 22,8 % (69,8 mln. AQSh doll.)ga, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar 23,1 % (143,2 mln. AQSh doll.)ga, ichimliklar va tamaki 83,6 % (10,7 mln. AQSh doll.)ga.

Import tarkibida quyidagi guruhlarda ham o’sish kuzatildi, jumladan: mineral yoqilg’i, yog’lash moylari va shunga o’xshash materiallar – 50,2 % (212,9 mln. AQSh doll.)ga, kimyoviy moddalar va shunga o’xshash mahsulotlar 12,0 % (408,6 mln. AQSh doll.)ga, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik



hayvonlar 33,0 % (334,7mln. AQSh doll.)ga, nooziq-ovqat xom ashyosi, yoqilg'idan tashqari – 11,6 % (61,7 mln. AQSh doll.)ga to'g'ri keladi.

## **6. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari**

2025- yilning yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **64 784,6** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **11,4 %** ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga moliyaviy xizmatlarning 13,2 % ga (ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o'sishidagi ta'siri 2,5 punkt), yashash va ovqatlanish xizmatlari 11,1 % ga (o'sishdagi ta'siri 1,9 punkt), transport xizmatlari 8,7 % ga (o'sishdagi ta'siri 1,8 punkt), savdo xizmatlari 10,2 % ga (o'sishdagi ta'siri 1,7 punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 21,6 % ga (o'sishdagi ta'siri 1,5 punkt), ta'lim sohasidagi xizmatlarni 16,0 % ga (o'sishdagi ta'siri 0,5 punkt) o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi transport xizmatlari (13 162,4 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,7 %ga yetdi), moliyaviy xizmatlar (11 864,5 mlrd. so'm, 113,2 %), yashash va ovqatlanish (11 047,5 mlrd. so'm, 111,1 %), savdo xizmatlari (10 295,2 mlrd. so'm, 110,2 %)ga to'g'ri keladi.

## **7. Korxonalar va tashkilotlar soni**

2025- yil 1- fevral holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **431,5** mingtani (*fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari*) tashkil etdi, ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 363,6 mingta. Hududlar bo'yicha joylashgan eng ko'p soni esa Toshkent shahri (97 524 ta), Toshkent (41 066 ta), Samarqand (38 148 ta), Farg'ona (34 932 ta), Qashqadaryo (27 969 ta), Buxoro (26 493 ta) va Andijon (25 518 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng ko'p soni savdo sohasida – 139 171 ta, sanoat sohasida – 56 277 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasida – 31 297 ta, qurilish sohasida – 27 908 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 26 639 tani tashkil etadi.

2025- yil yanvar oyida respublikada 7,3 mingta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 6,0 mingtani tashkil etdi.

2025- yil 1- fevral holatiga ko'ra respublikada xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 15 163 tani tashkil etdi. Ulardan 3 982 tasi qo'shma korxonalar va 11 181 tasi xorijiy korxonalar tashkil etgan.